



Maktab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida musiqa madaniyati orqali deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash texnologiyalari

Jabborova Muattar Xatamovna –
Jizzax shahar Maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 1-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabining musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash texnologiyalari tahlil qilingan. Musiqiy faoliyatga asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va tarbiyaviy yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asoslangan. Tadqiqot natijasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning takomillashtirilgan texnologik modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, pedagogik texnologiya, deviant xulq, ma'naviy tarbiya, interfaol metod, maktab, tarbiyaviy faoliyat, innovatsiya.

Методология развития межкультурной коммуникативной компетенции у учащихся при обучении корейскому языку

Аннотация. В статье анализируются педагогические технологии воспитания учащихся с девиантным поведением средствами музыкальной культуры в духовно-просветительской деятельности общеобразовательной школы. Научно обоснованы инновационные методы, интерактивные технологии и воспитательные подходы. Предложена усовершенствованная технологическая модель организации духовно-просветительских мероприятий.

Ключевые слова: музыкальная культура, педагогическая технология, девиантное поведение, духовное воспитание, интерактивные методы, школа, воспитательная деятельность, инновации.

Methodology for developing intercultural communication competence in students when teaching the korean language

Annotation. The article examines pedagogical technologies for educating students with deviant behavior through musical culture within school spiritual and educational activities. Innovative teaching technologies, interactive methods, and educational approaches are scientifically substantiated. As a result, an improved technological model for organizing school spiritual and educational activities is proposed.

Keywords: *musical culture, pedagogical technology, deviant behavior, spiritual education, interactive methods, school, educational activities, innovation.*

KIRISH

Umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Globallashuv, raqamli axborot makonining kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi o'quvchilar tarbiyasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa, deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda an'anaviy tarbiyaviy usullar har doim ham yetarli natija bermaydi. Shu sababli ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan, interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Musiqa madaniyati insonning hissiy, estetik va axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi pedagogik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqiy faoliyat o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtiradi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'zini namoyon etish imkoniyatini kengaytiradi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Shu jihatdan musiqa madaniyatini ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmuni bilan uyg'unlashtirish deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash texnologiyalarini maktab ma'naviy-ma'rifiy faoliyati bilan integratsiyalash masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning samarali pedagogik texnologiyalarini ilmiy asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash texnologiyalarini ilmiy asoslash hamda ularni amaliyotga joriy etish samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, psixologiya, musiqa ta'limi va tarbiya nazariyasining zamonaviy konsepsiyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim, aksiologik yondashuv, ijtimoiy-konstruktivistik yondashuv va integrativ ta'lim konsepsiyalari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularni faol pedagogik jarayonga jalb etishni nazarda tutadi.

Musiqa madaniyati vositasida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchilarning nafaqat estetik didini, balki ijtimoiy moslashuv, muloqot, hamkorlik, o'zini boshqarish va ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik kabi kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois tadqiqotda musiqa tarbiyasining mazmuni va pedagogik texnologiyalari yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning texnologik yondashuvi

Mazkur tadqiqotning asosiy xususiyati tarbiyaviy faoliyatni texnologik jarayon sifatida tashkil etishdan iborat.

Taklif etilayotgan texnologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. Diagnostik bosqich. Bu bosqichda: deviant xulq darajasi; emotsional holat; musiqiy qiziqish; ijtimoiy moslashuv; ma'naviy qadriyatlar maxsus diagnostik metodlar orqali aniqlanadi.

2-bosqich. Loyihalash mazkur bosqichda: tarbiyaviy maqsadlar belgilanadi; musiqa repertuari tanlanadi; tadbir ssenariysi ishlab chiqiladi; interfaol metodlar rejalashtiriladi; baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

3-bosqich. Amalga oshirish. Texnologiyaning asosiy bosqichi quyidagi pedagogik faoliyatlarni o'z ichiga oladi: musiqiy treninglar; "Maqom va ma'naviyat" kechalari; xor mashg'ulotlari; vokal guruhlar; musiqali sahna ko'rinishlari; milliy qo'shiqlar festivali; ijodiy uchrashuvlar; reflektiv suhbatlar.

4-bosqich. Refleksiya. Har bir tadbirdan so'ng o'quvchilar: o'z fikrlarini bildiradilar; his-tuyg'ularini tahlil qiladilar; o'z xulqidagi o'zgarishlarni baholaydilar. Bu bosqich shaxsiy rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

5-bosqich. Monitoring. Natijalar muntazam ravishda quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi: intizom; jamoaviylik; ijtimoiy faollik; musiqiy tadbirlardagi ishtirok; ma'naviy qadriyatlarga munosabat; deviant xatti-harakatlarning kamayishi.

Tadqiqotda qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar. Tadqiqotda quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etildi:

Loyiha texnologiyasi. O'quvchilar kichik guruhlarda "Milliy musiqa va ma'naviyat", "Vatanga bag'ishlangan qo'shiqlar", "Maqom merosi" kabi loyihalarni ishlab chiqadilar.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Xor, ansambl va musiqiy sahna ko'rinishlari orqali o'quvchilarda jamoada ishlash kompetensiyasi rivojlantiriladi.

Keys-stadi texnologiyasi. Musiqa va axloqiy qadriyatlarga oid real hayotiy vaziyatlar muhokama qilinadi hamda ularning yechimlari ishlab chiqiladi.

Reflektiv texnologiya. Tadbir yakunida o'quvchilar o'z hissiyotlari va xulosalarini tahlil qiladilar.

Raqamli pedagogik texnologiyalar. Musiqiy videolar, multimedia taqdimotlari, virtual konsertlar va raqamli ta'lim platformalari tarbiyaviy jarayonni boyitishda qo'llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Tadqiqot quyidagi ilmiy farazga asoslanadi:

Agar maktab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida musiqa madaniyati zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tizimli qo'llanilsa, deviant xulqli o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va ijobiy xulq-atvori sezilarli darajada yaxshilanadi. Umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish hamda deviant xulqli o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu muammoni hal etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, san'atga asoslangan ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortdi. Xususan, musiqa madaniyati vositasida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish o'quvchilarning emotsional, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasining ilmiy asoslari V.P.Bespalko, M.V.Klarin, G.K.Selevko va V.M.Monaxovlarning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan. Ular pedagogik texnologiyani oldindan loyihalashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va natijasi kafolatlanadigan pedagogik jarayon sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuv tarbiyaviy faoliyatni ham tizimli rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi. M.V.Klarin pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini ilmiy asosda loyihalash va boshqarish vositasi sifatida talqin etadi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchini faol subyektga aylantirishi, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishi kerak. Ushbu g'oya musiqa madaniyati vositasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun ham metodologik ahamiyatga ega. G.K.Selevko pedagogik texnologiyalar tasnifini ishlab chiqib, shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlikka asoslangan, rivojlantiruvchi va muammoli ta'lim texnologiyalarining tarbiyaviy imkoniyatlarini asoslab bergan. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar deviant

xulqli o'quvchilar bilan ishlashda samarali vosita sifatida baholanadi, chunki ular har bir o'quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

O'zbekiston pedagogika fanida innovatsion pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish masalalari R.Ishmuhamedov, B.Xodjayev, N.Egamberdiyeva, Sh.Sharipov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ular kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etishning nazariy hamda metodik asoslarini ishlab chiqqanlar. R.Ishmuhamedov interfaol metodlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Bu yondashuv musiqa madaniyati fanida xor mashg'ulotlari, ansambl ijrosi, musiqiy loyiha va sahna ko'rinishlarini tashkil etishda keng qo'llanishi mumkin. N.Egamberdiyeva ma'naviy-axloqiy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashda maktab, oila va mahalla hamkorligining muhimligini asoslaydi. Ushbu ilmiy qarash musiqa madaniyati asosidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni faqat maktab doirasida emas, balki ota-onalar va mahalla faollari ishtirokida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Musiqa pedagogikasi sohasida D.B.Kabalevskiy konsepsiyasi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Olimning fikricha, musiqa ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarning estetik didini shakllantirish bilangina cheklanmay, ularning ma'naviy kamolotiga ham xizmat qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, musiqa darslari va sinfdan tashqari musiqiy tadbirlar yagona tarbiyaviy tizim sifatida qaralishi zarur.

Xorijiy tadqiqotlarda ham musiqa vositasida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish masalasi keng o'rganilgan. Susan Hallamning tadqiqotlari musiqa bilan muntazam shug'ullanish o'quvchilarning o'zini boshqarish, diqqatni jamlash va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatadi. Uning ilmiy xulosalariga ko'ra, jamoaviy musiqiy faoliyat tajovuzkorlik darajasini kamaytiradi va hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi. Keith Swanwick musiqa ta'limini ijodkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qiladi. U o'quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ijodiy faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida ko'rish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv deviant xulqli o'quvchilarni musiqiy loyihalar, improvizatsiya va sahna faoliyatiga jalb etishning pedagogik asoslarini mustahkamlaydi. David J.Hargreaves va Adrian North musiqaning ijtimoiy psixologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida musiqiy faoliyatning shaxs identifikatsiyasi, ijtimoiy munosabatlar va emotsional barqarorlikka ta'sirini ilmiy jihatdan asoslaganlar. Ularning fikricha, musiqa orqali tashkil etilgan jamoaviy faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi va salbiy xulq-atvorning oldini olishga yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'nggi yillarda SEL (Social and Emotional Learning) konsepsiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar ham san'at, xususan musiqa vositasida emotsional intellektni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Ushbu konsepsiya o'quvchilarda empatiya, mas'uliyat, muloqot madaniyati va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu kompetensiyalar deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda alohida ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda pedagogik texnologiyalar, musiqa ta'limi va ma'naviy tarbiya masalalari alohida yo'nalishlarda keng tadqiq etilgan. Biroq ushbu uch yo'nalishni yagona tizim sifatida birlashtirgan, ya'ni umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash texnologiyasini kompleks yoritgan tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar musiqa madaniyati mazmuni bilan integratsiyalashgan holda ko'rib chiqiladi. Taklif etilgan texnologik model diagnostika, loyihalash, ijodiy faoliyat, refleksiya va monitoring bosqichlarini yagona tizimda birlashtirib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv

nafaqat deviant xulqli o'quvchilarning salbiy xulq-atvorini kamaytirishga, balki ularning ma'naviy barkamolligi, estetik didi, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ham imkon yaratadi.

Mazkur tadqiqotda umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslari o'rganildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, musiqa madaniyati o'quvchilarning emotsional holatiga, ma'naviy qadriyatlariga va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shu sababli uni maktabning ma'naviy-ma'rifiy faoliyati bilan uzviy integratsiyalash tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Tadqiqot davomida pedagogik texnologiyalarning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinib, ularni musiqa madaniyati mazmuni bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari aniqlandi. Shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar musiqa vositasida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatning ilmiy-metodik asosini tashkil etishi asoslandi. Ayniqsa, interfaol metodlar, musiqiy loyihalar, xor va ansambl mashg'ulotlari, sahna ko'rinishlari hamda refleksiv mashg'ulotlar deviant xulqli o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

XULOSA

Maqolada ishlab chiqilgan yetti bosqichli pedagogik texnologiya (diagnostika, rejalashtirish, motivatsiya, ijodiy faoliyat, refleksiya, monitoring va korreksiya) tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish imkonini beradi. Mazkur texnologiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirish va baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Umumta'lim maktablarining yillik ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga musiqa madaniyatiga asoslangan maxsus tarbiyaviy loyihalar kiritilishi tavsiya etiladi.
2. Deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha musiqa madaniyati o'qituvchilari, sinf rahbarlari va maktab psixologlari uchun integratsiyalashgan metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur.
3. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda interfaol metodlardan (musiqiy loyiha, rol o'ynash, musiqiy dialog, refleksiya, keys-stadi va treninglar) muntazam foydalanish maqsadga muvofiq.
4. Maktablarda xor, vokal, ansambl va milliy cholg'u to'garaklari faoliyatini tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirish orqali deviant xulqli o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish lozim.
5. Musiqa madaniyati fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslari dasturlariga maxsus modul kiritilishi tavsiya etiladi.
6. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini baholash uchun ma'naviy-axloqiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlikni aks ettiruvchi diagnostik mezonlar tizimini amaliyotga joriy etish zarur.
7. Ota-onalar, mahalla fuqarolar yig'ini, madaniyat markazlari va bolalar musiqa maktablari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali tarbiyaviy ishlarning uzluksizligini ta'minlash tavsiya etiladi.

Shunday qilib, musiqa madaniyati vositasida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning samarali pedagogik texnologiyasi sifatida baholanishi mumkin. Taklif etilgan texnologiya umumta'lim maktablari amaliyotida qo'llanilganda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, salbiy xulq-atvorning oldini olish hamda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
3. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1977.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
5. Kabalevskiy D.B. Maktabda musiqa tarbiyasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988.
6. Nemenskiy B.M. San'at va shaxs tarbiyasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1987.
7. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 2011.
8. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 2005.
9. Durkheim É. The Division of Labor in Society. New York: Free Press, 1997.
10. Merton R.K. Social Theory and Social Structure. New York: Free Press, 1968.
11. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
12. Egamberdiyeva N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
13. Xodjayev B. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sano-standart, 2020.
14. Sharipov Sh. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent, 2021.
15. Musurmonova O. Ma'naviy tarbiya metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.